


## Korxonalar va tashkilotlarning demografiyasi

### 1. Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar holati.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida olib borilgan islohotlar natijasida, 2017 yil 1 dekabr holatiga, viloyat bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 22503 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 15,8 foizga oshganligini ko'rsatdi. Ushbu korxonalarining asosiy qismi, 7123 tasi Samarqand shahriga, 2006 tasi Urgut, 1788 tasi Paxtdarg'om, 1518 tasi Samarqand, 1195 tasi Payariq, 1121 tasi Ishtixon, 1037 tasi Kattaqo'rg'on, 855 tasi Bulung'ur, 868 tasi Narpay, 873 tasi Tayloq, 857 tasi Oqdaryo, 739 tasi Jomboy, 651 tasi Nurobod, 590 tasi Paxtachi, 545 tasi Qo'shrabot tumanlariga va 737 tasi Kattaqo'rg'on shahriga to'g'ri keladi.

### Hududlar kesimida ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




### 2. Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar faolligi.

Shu bilan birga, 2017 yil 1 dekabr holatiga kelib, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 21173 tani tashkil etildi.

Mazkur ko'rsatkich viloyat bo'yicha asosiy qismi, 6789 tasi Samarqand shahriga, 1962 tasi Urgut, 1575 tasi Paxtdarg'om, 1390 tasi Samarqand, 1107 tasi Payariq, 1056 tasi Ishtixon, 968 tasi Kattaqo'rg'on, 786 tasi Bulung'ur, 844 tasi Tayloq, 832 tasi Narpay, 806 tasi Oqdaryo, 672 tasi Jomboy, 590 tasi Nurobod, 559 tasi Paxtachi, 525 tasi Qo'shrabot tumanlariga va 712 tasi Kattaqo'rg'on shahriga to'g'ri keladi.


## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



Iqtisodiyot tarmoqlari kesimida 2017 yil 1 dekabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 21173 ta yuridik shaxsning (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) asosiy qismi 4739 tasi savdo, 3724 tasi sanoat, 1681 tasi qurilish, 1428 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1221 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 700 tasi tashish va saqlash, 462 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 393 tasi axborot va aloqa hamda 6825 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda



### **3. Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarni rivojlantirish**

2017 yil 1dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 280 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 36 taga yoki 14,7 % ga o'sgan. Shuningdek, Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 220 tasi qo'shma korxonalar, 60 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Ro'yxatga olingan xorijiy investitsiya va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi 197 tasi sanoatda, 42 tasi savdo, 14 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5 tasi tashish va saqlashda, 3 tasi qurilishda va 17 boshqa turdagi sohalariga to'g'ri keladi.

### 2017 yil 1 dekabr holatiga Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha soni

